

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI

*Ziyayeva Surayyo Djoraboyevna, Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
katta o‘qituvchisi*

*G‘ofurova Muxlisa G‘ulom qizi Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatayotgan ta’siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun‘iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar (Big Data)ning iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, fintech, sun‘iy intellekt, Big Data, raqamli infratuzilma, iqtisodiy o‘sish, IT xizmatlar, kiberxavfsizlik, O‘zbekiston iqtisodiyoti*

РАЗВИТИЕ ДИГИТАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

*Зияева Сурайё Джорабоевна, старший преподаватель Ташкентского
университета социальных инноваций*

*Гофурова Мухлиса Гулом кизи Студентка Ташкентского
университета социальных инноваций*

Аннотация: *В данной статье всесторонне анализируется сущность цифровой экономики, ее основные компоненты и ее влияние на экономику Узбекистана. В ходе исследования была изучена роль цифровых технологий, включая искусственный интеллект, блокчейн и большие данные (Big Data), в экономических процессах.*

Ключевые слова: *Цифровая экономика, цифровая трансформация, электронная коммерция, финтех, искусственный интеллект, большие*

данние, цифровая инфраструктура, экономический рост, IT-услуги, кибербезопасность, экономика Узбекистана

DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY AND ITS INFLUENCE ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

*Ziyayeva Surayyo Joraboyevna, Senior Lecturer, Tashkent University of
Social Innovations*

*Gofurova Mukhlisa Gulom kizi Student of Tashkent University of Social
Innovations*

Abstract: *This article comprehensively analyzes the essence of the digital economy, its main components, and its impact on the economy of Uzbekistan. During the study, the role of digital technologies, including artificial intelligence, blockchain, and big data (Big Data), in economic processes was studied.*

Keywords: *Digital economy, digital transformation, e-commerce, fintech, artificial intelligence, Big Data, digital infrastructure, economic growth, IT services, cybersecurity, economy of Uzbekistan*

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiy tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv jarayonlari tubdan o'zgarib, iqtisodiyotning yangi modeli shakllanmoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston ham raqamli transformatsiyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, ushbu sohada keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat tizimini

kengaytirish va IT xizmatlarini eksport qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda **IT Park Uzbekistan** muhim rol o'ynamoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli iqtisodiyotning mohiyatini tahlil qilish, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish hamda rivojlanish istiqbollari aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor **Nicholas Negroponte** tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u iqtisodiyotning “atomlardan bitlarga o'tishi” jarayonini ta'riflab bergan [1, 2].

World Bank raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholaydi

OECD uni innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri deb hisoblaydi


International Monetary Fund esa raqamli moliya tizimlarining barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi

1-rasm. Raqamli iqtisodiyot xalqaro tashkilotlar nazarida

Bugungi kunda bu tushuncha kengayib, xalqaro tashkilotlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Jumladan:

Raqamli iqtisodiyotga o'tish nafaqat texnologik jarayon, balki iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va jamiyatda raqamli tengsizlikni kamaytirish imkoniyatlarini beradi. Shunday qilib, ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi va uning iqtisodiy o'sishdagi roli haqida batafsil ma'lumot beradi.

Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonning kelgusi iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni, strategik rejalari va joriy holati tahlil qilinadi, bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotdan foydalanishida yangi yo'nalishlarni belgilaydi.



2-rasm. Raqamli iqtisodiyot tarkibiy qismlari.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy tizimini modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda davlat va xususiy sektor hamkorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda [3]. Tadqiqotda O'zbekistonning raqamli valyutalari bo'yicha olib borilgan islohotlar, raqamli to'lov tizimlari va elektron savdo platformalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganildi [4].

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari ham yuqori bo'ladi.

So'nggi yillarda statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

2018-yilda internet foydalanuvchilari soni 20 million bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 32 milliondan oshdi bu esa raqamli xizmatlarga talab keskin ortayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek:

Raqamli to'lovlar hajmi 2020-yildagi 150 trillion so'mdan, 2024-yilda 600 trillion so'mga yetgan. Bundan tashqari, IT xizmatlar eksporti ham sezilarli darajada oshib, yuzlab million dollarga yetgan [3].

Bu jarayonlarda **IT Park Uzbekistan** rezidentlari tomonidan eksport qilinayotgan IT xizmatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi rivojlanishi va uning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini tahlil qilish natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. *Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi.* 2020-yildan boshlab O‘zbekistonda blokcheyn, sun‘iy intellekt va katta hajmdagi ma‘lumotlar (Big Data) kabi ilg‘or raqamli texnologiyalar keng joriy etila boshlandi. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, moliya-bank tizimi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari hamda davlat boshqaruvida samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.

2. *Iqtisodiy o‘shishga qo‘shilgan hissa.* Raqamli iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy o‘shishining muhim omillaridan biriga aylandi. Xususan, 2021–2023-yillar davomida raqamli xizmatlar va texnologiyalar yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘shishiga taxminan 2–3 foiz atrofida qo‘shimcha hissa qo‘shgani kuzatildi.

3. *Raqamli savodxonlik darajasi.* Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun aholi va tadbirkorlarning raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu boradagi ko‘rsatkichlar yetarli darajada emas. Shu sababli ta‘lim tizimida zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

4. *Sanoat va xizmatlar sektoriga ta‘siri.* Raqamli texnologiyalar sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarida yangi imkoniyatlar yaratdi. Xususan, innovatsion startaplar sonining ortishi, ayniqsa raqamli xizmatlar yo‘nalishida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining ko‘payishi iqtisodiy diversifikatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

5. *Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi.* O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro tajribani faol o‘rganmoqda hamda global hamkorlikni kengaytirmoqda. Xususan, xalqaro raqamli platformalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

6. *Raqobat muhitining transformatsiyasi.* Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida raqobat muhiti sezilarli darajada o'zgardi. Yangi kompaniyalar va startaplarning paydo bo'lishi bozor dinamikasini kuchaytirdi. Shu bilan birga, bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyalarni tezkor joriy etish va yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlash zarurati ortib bormoqda [5,6,7].

1-jadval. 2024-2026-yillarda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga ta'siri

Soha	2024-yildagi o'sish ko'rsatkichi	2025-yildagi o'sish ko'rsatkichi	2026-yildagi prognoz o'sish ko'rsatkichi
Raqamli iqtisodiyot (YAIMga hisyasi)	~5–6%	~7–8%	~9–10%
Elektron tijorat (E-commerce)	~25%	~30%	~35%
Sanoatni raqamlashtirish (avtomatlashtirish)	~15%	~18–20%	~22–25%
Yangi ish o'rinlari (IT va raqamli sektor)	~12–15%	~15–18%	~18–22%
Raqamli infratuzilma (internet va 5G)	~60% aholi qamrovi	~70–75% qamrov	~80–85% qamrov

Ushbu jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, elektron tijorat va raqamli infratuzilma eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlar hisoblanadi. Shu bilan birga, yaqin yillarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshishi prognoz qilinmoqda.

Prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2024-yildagi 5–6 foizdan 2026-yilga borib 9–10 foizgacha oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi.






XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi milliy iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mehnat bozorini transformatsiya qilish hamda aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, institutsional muhitni takomillashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi siyosatni izchil amalga oshirish mamlakatning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim drayveriga aylanmoqda. Internet foydalanuvchilari sonining ortishi, raqamli to‘lovlarning kengayishi va IT xizmatlar eksportining oshishi ushbu jarayonning ijobiy natijalarini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun kompleks yondashuv asosida quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-  zamonaviy va yuqori tezlikdagi internet infratuzilmasini kengaytirish;
-  raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish;
-  startap ekotizimini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish;
-  milliy kiberxavfsizlik tizimini kuchaytirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash;
-  xalqaro raqamli integratsiyani chuqurlashtirish va global hamkorlikni kengaytirish.

Mazkur chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirib, uni global raqamli iqtisodiyotda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Digital Economy for Development Report. Washington, DC, 2022.
2. International Monetary Fund. Fintech and the Digital Transformation of Financial Services. Washington, DC, 2021.
3. Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari. Toshkent, 2025.
4. Xalikov B.Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli boshqaruv texnologiyalarni rivojlanish tendensiyalari, 2023 yil, b. 2-3.
5. Ziyayeva Surayyo Ta'limda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot yo'nalishida qo'llashning ahamiyati innovation in the modern education system Part 55 Colletions of scientific works Washington, USA 25th September 2025 33-38 p
6. Akhmedov, B., Yakubov, M., & Akhmedjonov, D. (2022). Methods of teaching to information technologies: problem type of learning. Central Asian journal of education and computer sciences (cajecs), 1(2), 57-60.
7. Muminov, O. Raqamli valyutalar va ularning moliyaviy tizimlarga ta'siri. T.: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2023. – bet 30-35. (Digital Currencies and Their Impact on Financial Systems)